

G'AFUR G'ULOM IJODIDA O'ZBEK XALQI TARIXINING O'ZIGA XOSLIGI.

Jamilova Norjon*O'zbekiston Finlandiya Pedagogika Instituti**Pedagogika fakulteti talabasi*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada o'zbek xalqining sevimli va mashhur yozuvchisi G'afur G'ulom ijodida o'zbek xalqi tarixi yoritib berilgan. Shuningdek, yozuvchining hayot yo'li, ijodi haqida batafsil ma'lumotlar tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *She'riyat, ijodkor, nasr, qalb sohibi, yetim, Yodgor, fashist, badiiy timsol.*

Akademik shoir G'afur G'ulom kattalarning ardoqli adibi bo'lishi bilan birga, bolalarning ham sevimli ijodkori-dir. Shoir 1903-yilning 10-may kuni Toshkentda, dehqonlar oilasida tug'ilgan. Uning otasi savodxon bo'lgan. U o'zbek va tojik mumtoz adabiyotini o'qigan, rus tilini bilgan, o'zi ham she'rlar yozgan. Uning uyiga Muqimiy, Furqat, Asiriy, Xislat va boshqa shoirlar kelib turgan. Shoirning birin-ketin she'riy to'plamlari bosmadan chiqadi. „Dinamo“, „Xitoy suratlari“, „Biz sizlar bilan tirikmiz“, „Jonli qo'shiqlar“, „Sizga“, „Sovg'a“, „Tong qo'shig'i“, „Qo'qon dostoni va boshqalar“, „Dinamo“ va „Tirik qo'shiqlar“-yosh shoirning yo'nalishi yorqin namoyon bo'lgan birinchi she'riy to'plamlari.

G'afur G'ulomning she'riyati va nasrida o'zbek xalqi tarixi o'zining badiiy timsolini topgan. Yozuvchining ijodi rang-barang she'rlar, qo'shiqlar, dostonlar, qasidalar, hikoyalar va qissalardan iborat. G'afur G'ulomning urushdan keyingi davrdagi ijodi o'zbek adabiyoti rivojida beqiyos o'rin tutgan. Shoir o'z ijodi bilan o'zbek xalqining tarixi, urush yillarida ko'rgan jabr- zulumlari, bolalarning yetim, ayollarning beva, ota-onalarning farzandidan judo bo'lgandan so'ngi faryodi, ocharchilik kabi voqealarni baham ko'rgan. Shoirning „Feliks farzandlari“ she'rida yetim bolalar haqida gapirar ekan, unda yozuvchi o'z hayotini ifodalaydi.

„Qish va qor“, „Non“, „Xotin“, „Afsuski afsusni qo'shib ko'mmadi“, „Kuz keldi“, „Kuzgi ko'chatlar“ kabi she'rlarida o'zbek xalqiga xos bo'lgan umum - insoniylik, insonparvarlik kabi mavzulari o'z aksini topdi.

Ko'pgina she'rlarida sharq donishmandi-ota timsola mavjud: „Sen yetim emassan“, „Qayg'u“, „Bir-biriga shogird, bir-biriga ustod“, „Sizlarga yoshlar“, „Bahor taronalari“ va boshqa boshqalar. G'afur G'ulom yetimlikda ulg'ayganini umr bo'yi unuta olmadi. Yetimlik uni o'ksik qalb sohibiga aylantirgan va mudom ta'qib etganligi tufayli bolalarga atab qaysi mavzuga she'r yozmasin, o'sha zahoti xotirasi qatlaridagi yetimlik armonlari uyg'onishi tabiiy edi. Xususan kattalar uchun yozilgan va xx asr o'zbek she'riyatida voqeaga aylangan „Sen yetim emassan“ she'rida ham qonxo'r

fashistlar ming-minglab bolalarni ota-onalaridan ayro etib, yetim qoldirayotganidan jirkangan shoir yana o'sha „o'ninchi yillar sargardonligi"ni eslamay, o'tolmaydi.

Yetimlik nimadir,
Bizlardan so'ra.
O'ninchi yillarning,
Sargardonligi.
Isitma aralash,
Qo'rqinch tush kabi.
Xayol ko'zgusidan,
O'chmaydi sira.

O'sha davrdagi urush voqealarini „haqiqatmi yoki qo'rqinchli tushmi farqlay olmayotgan bola, ko'z o'ngida bo'ladigan hodisalarni naqadar esda qolarli darajada yuz berayotganini, isitma aralash boshidan o'tkazadi. Hech qachon bu voqealar xayolidan o'chmaydi.

Sen yetim emassan,
Tinchlan jigarim.
Quyoshdam mehribon,
Vataning -onang.
Zaminday vazmin-u,
Mehnatkash mushfiq.
Istagan narsangni tayyorlaguvchi,
Xalq bor-otang bor.
Cho'chima, jigarim,
O'z uyingdasan.

Hatto o'ziga yetti yot begona bo'lgan bolani ham „jigarim" deb o'ziga yaqin olgan va unga tinchlan, istagan narsangni tayyorlaguvchi xalqing bor deb, o'z farzandi hisoblanmasa ham „o'z uyiga kirgizib bolasiday mehr ko'rsatib „xavotir olma o'z uyingdasan deb dalda bergan xalqimizning insoniylik xislatlari juda ko'p

Umuman, bu she'r yaratilganidan buyon baralla jaranglab, o'z vaqtida jangchilar uchun umid va ularning O'zbekistonga evakuatsiya qilingan yetim farzandlari uchun tasalliga aylangan bo'lib „xalqimiz mehru-oqibatining tarannumidan bitilgan. Shu muqaddas adabiy hujjat bor ekan, bolajon xalqimizning yetimparvarlik jasorati tarixining bu yorqin sahifalarini hech kim na o'chira oladi va na o'zgartira oladi.

Shoirning „Netay", „Yodgor", „Shum bola" qissalari va „Shariat nayranglari", „Mening o'g'rigina bolam" hikoyalarida chinakam o'zbek xalqimizning qahramonliklari, milliyligimiz tasvirlangan. Adib bu asarlarida yetimlikni keltirib chiqargan sabab va oqibatlarga badiiy nazar solish yo'lidan boradi. Zero, otasi yo onasi (ba'zan har ikkovi) dan bevaqt ajralib, o'gay ota yoki o'gay onadan shafqat emas, shafqatsizlik ko'rgan bolakayning achchiq va alamli qismati shunday foje qismatdir. Bunday holatda yetimning o'gayligi birmuncha shaxsiy fojea sanalishi

mumkin. Ammo G'afur G'ulom masalani shu holda yechish yo'lidan bormagan, aksincha, u o'tmishdagi nobop tuzum va bemehr jamiyatning shafqatsizligi ham o'lganni tepkilab, yetim-yesirlarga o'gaylik qilish fojeasini ochishga harakat qildi va aytish mumkinki, bunga muvaffaq ham bo'ldi.

„Yodgor” qissasidagi katta qalb egasi bo'lmish ijobiy qahramon Jo'ra begonaning farzandini tarbiyalaydi. Aynan oddiy insonning begona bolaga bo'lgan munosabati orqali muallif Jo'raning yuqori axloqiy darajasini ko'rsatib bergan.

Urush yillarida G'afur G'ulom „Seni kutyapman o'g'lim”, „Vaqt”, „Kuzatish”, „Ayol”, „Bizning ko'chada ham bayram bo'lajak” kabi ajoyib she'rlar yaratgan. „Seni kutyapman o'g'lim” she'rida shoir front ortida o'zlarining qahramonona mehnatlari orqali dushman ustidan g'alabani yaqinlashtirgan otalarning sabri va kuchini madh etadi.

„Yangi she'rlar”, „O'zbekiston olovlari”, „Onalar”, „O'zbek xalq g'ururi”, „Tong qo'shig'i”, „Yashasin tinchlik”, „Bu sening imzoing” kabi she'riy to'plamlaridan joy olgan she'rlarida shoir tinchlik davrining muhim savollariga javob topishga, o'zbek xalqining mehnat faoliyatidagi muvaffaqiyatlarini ko'rsatishga intiladi. Asarlarining qahramonlari dunyo ishlari va osoyishta mehnat bilan band bo'lgan sobiq askarlardir.

Xulosa qilar ekanman, G'afur G'ulom so'nggi nafasigacha ijod etdi, mehnat qildi, o'zbek xalqining boshiga tushgan qiyinchiliklarini yozishdan charchamadi. G'afur G'ulom ijodining urushdan keyingi davri o'zbek adabiyoti rivojida muhim o'rin egalladi. Urushdan avvalgi davrlarda uning she'rlarida, urushdan oldin ular tomonidan yaratilgan narsalarni qo'lda qurol bilan himoya qilayotgan, yerda tinchlik istayotgan odamlarning ichki kechinmalari va o'y xayollari tasvirlangan. G'afur G'ulomning ijodida o'zbek xalqi tarixi o'zining badiiy timsolini topgan. Chunki G'afur G'ulom umrining oxirigacha yetimlik og'riqlarini unutmadi, insonlarning boshiga tushgan sinovlarni, qiyinchiliklarni xotirasidan o'chira olmadi. Shularning guvohi bo'lgani bois, o'zbek xalqi tarixini qog'ozga tushurdi va tarixda xalqimiz shunday qiyinchiliklarni boshidan o'tkazganligini, bizlar esa hozirgi kunimiz uchun shukronalar aytishimiz kerakligini kelajak avlodga noyob ijodi orqali yetkazdi desak xato bo'lmaydi, albatta.